



**OZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIKNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT  
STOMATOLOGIYA INSTITUTI**



**"YOSH OLIMLAR KUNI"  
Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
TEZISLAR TO'PLAMI**

**COLLECTION OF ABSTRACTS  
“YOUNG SCIENTISTS DAY”  
Republic scientific and practical conference**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ  
Республиканской научно-практической конференции  
“ДЕНЬ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ”**

**Toshkent 25 aprel 2024 y.**

G. Kompyuter navigatsiya tizimlariyordamida yuz skeletining konjenital anomaliyala rinibartaraf etish // Kreml tibbiyoti. Klinik xabarnoma. 2020. № 2. 55–62-betlar.

4. Topolnitskiy O.Z., Komelyagin D.Yu., DubinS.A., Vladimirov F.I.Noviy.

Pastki jag' tarmog'i rivojlanmagan bolalarnidavolash usuli // Rus stomatologiyas i. 2018. T. 11, No 1. 47–49-betlar.

5. Topolnitskiy O.

Z., Dmitrieva I.V., Arapov N.S., Krasnov A.P. Kuchaytirilgan kompozit endoprotezla ryordamida jag'larning nuqsonlari va deformatsiyasibo'lgan bolalar va o'smirlarni dav olash // Russtomatologiyasi. 2018. 11-jild, 1-son. 39–40-betlar.

6. Shayxaliev A.I.,

Ivanov S.Yu., Davydova T.R., Korshakov E.V., Pankratov A.S., Petruk P.S., Soloshev P.P., Arzashvili L.D., Gasbanov G. A., Korgoloev R.

S., Enstitiskiy Usatov D. lar jarayonipastki jag'ning sinxron ekskursiyasini ta'minlovch itemporomandibular qo'shma. Foydali model patenti 202290U1, 02/10/2021. Ariza № 2020109883 06.03.2020.

8. Caron C. J. M., Pluijmers B. I., Wolvius E. B., Looman C. W. N., Bulstrode N., Evans R.

D. vaboshqalar. Kraniofasiyal mikrosomiyada kraniofasiyalva ekstrakraniofasiyal anomaliyalar: 755 bemorningko'p markazli tadqiqoti. J. Craniomaxillofac. Surg. 2017;45(8):1302–1310.

9. Galea C. J., Dashow J. E., Woerner J.

E. Temporomandibular bo'g'imning konjenitalanomaliyalar. Og'zaki. Maksillofasiyal . Surg. Klin. N. Am. 30. 2018. R. 71–82.

10. Kim B. S., Chen X., Chen C., Chong C. H., Yan Y. J., Xan V., Sun M., Yang X., Xu H. S., Chjan Y., Chai G. OMENS + Xitoyda kraniofasiyal mikrosomiyatasnifi korrelyatsiyasi tahlili : Makrostomiya va mandibulyar gipoplaziya o'rtasidagi munosabat. J. Craniofac. Surg. 2022. Yanvar 18.

## O'Z VAQTIDA CHIQMAGAN DOIMIY TISHLARNI TASHXISLASH VA KOMPLEKS DAVOLASH.

Shaamuhamedova F.A., Murtazaev S.S., Ne'matova M.A magistr 1-kurs,

Baxtiyorova M.I magistr 1-kurs, Kamolov K.N magistr 1-kurs

Toshkent Davlat stomatologiya instituti “Ortodontiya va tishlarni protezlash”  
kafedrasi, O'zbekiston

**Tadqiqotning dolzarbliyi.** Retensiyaga uchragan tishlar- bu fiziologik yorib chiqmagan va jag'da joylashgan, ildizlarning shakllanishi tugagan tishlardir. Har qanday tishlar guruhi retensiyaga uchrashi mumkin, lekin qoziq tishlarning o'z vaqtida chiqmasligi eng keng tarqalgan. Yuqori jag' kesuv tishlar sohasida tez-tez uchraydigan ortiqcha tishlar ham boshqa tish retensiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra tishni retensiyaga uchrash sababi mahalliy va umumiy omillardir. Mahalliy omillar (ortiqcha tishlar, travma, tish yoyida bo'sh joy yetishmasligi) bitta tishning o'z vaqtida chiqmasligiga olib keladi. Umumiy omillar, masalan, endokrin kasalliklar, ko'plab tishlarning o'z vaqtida chiqmasligiga sabab

bo'ladi. Tishning kechikish sababi bartaraf etilsa, tish o'z-o'zidan yorib chiqishi mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Doimiy tishlarni o'z vaqtida chiqmaslik sabablarini o'rganish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda chuqur joylashgan retension tishlari bo'lgan bolalar va o'smirlarni kompleks davolash natijalarini tahlil qilish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** 2023-2024 yillar Toshkent Davlat Stomatologiya instituti "Ortodontiya va tishlarni protezlash" kafedrasining ortodontiya klinikasida tishlari retensiyaga uchragan 13 nafar bola tekshirildi. Kasallik tashxisi klinik va rentgenologik ma'lumotlar asosida qo'yildi. Alveolyar o'simtada retensiyaga uchragan tishning holatini aniqlash uchun rentgenografiya va kompyuter tomogrammalari o'tkazildi. Ortiqcha tishlar rentgen tekshiruvi paytida aniqlandi. Ba'zida ortiqcha tishlar ular yorib chiqqandan keyin aniqlanishi ham mumkin. Agar doimiy tishlarning o'z vaqtida chiqmasligi alveolyar o'simtada ortiqcha tishlarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, ortiqcha tish jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi, so'ngra to'liq doimiy tishlarning yorib chiqishi uchun ta'sirlantirish choralar qo'llaniladi. Ortiqcha tishlarni olib tashlagandan so'ng, yetarli joy bo'lsa, 2-6 oy ichida retensiyaga uchragan tishlar mustaqil ravishda yorib chiqadi. Agar bu davrdan keyin tishlar chiqmagan bo'lsa, sun'iy milk bilan olinadigan plastinka, shuningdek, ularning yorib chiqishini ta'sirlantiradigan fizik davolash usullari qo'llaniladi: lidaza elektroforezi.

**Tadqiqot natijalari.** Ko'pgina hollarda, tishlarning o'z vaqtida chiqmasligi sababi mahalliy omillar hisoblanadi. Ulardan 6 ta bolada retensiya sababi ortiqcha tishlarning mavjudligi edi. Tishlar o'z o'qiga noto'g'ri joylashish va tish qatorida bo'sh joy yetishmasligi ham mos ravishda 7 ta holatda retensiyaga sabab bo'lgan. Ortiqcha tishlar ko'proq tanglayda joylashgan va ularning faqat toj qismi shakllangan bo'lgan. O'z vaqtida chiqmagan tishning ildizlari shakllanmagan chunki ortiqcha tishlar borligi xalaqit bergen. Bu mexanik to'siq hisoblanib ildiz shakllanishi kechikishiga va tishlarni o'z vaqtida chiqmasligiga olib keladi. Tishlarning o'z o'qiga nisbatan noto'g'ri joylashishi va tish yoyida bo'sh joy yetishmasligi natijasida tishlari retensiyaga uchragan bolalar tekshirilganda tish yoyining torayishi aniqlandi. Bunday bemorlarda tishlarning joylashushi o'zgarishi va tish yoyida joy yetishmasligi sababli davolash ortodontik yoki jarrohlik usuli yordamida tish yoyida joy hosil qilishdan boshlanadi. Agar qoziqlar uchun yetarli bo'sh joy bo'lmasa, birinchi premolyar yoki sut qoziq tishlarni olib tashlash kerak. Shundan keyingina retensiyaga uchragan tishlarning tojini ochib ortodontik vositalar yordamida olib chiqish mumkin. Retension qoziqlarning tojlarini vestibulyar va tanglay tomonlarda joylashishi mumkin. Tish tojlarini ochish uchun jarrohlik yo'li bilan kirish ko'pincha tanglay tarafdan amalga oshirilgan. Bunda infiltratsion og'riqsizlantirish ostida o'sha tish sohasidagi shilliq qavat va suyakusti parda ajratiladi, so'ngra tashqi kortikal plastinkadan bormashina yordamida retension tishga mos keladigan teshikcha ochilib, uning toji atrofdagi to'qimalardan tozalandi. Keyingi ortodontik davo(tishni tortib tish yoyiga olib tushish) uchun retension tishning tojiga knopka yoki breket yopishtiriladi. Keyin yara to'liq epitelizatsiyalangunga qadar yodoform tampon bilan yopiladi va 5-7 kun davomida yallig'lanishga qarshi davo kursi buyuriladi. Yaraning epitelizatsiyasidan 7-10 kun o'tgach, doka tamponlar olib

tashlandi va ortodontik davolash boshlanadi. Retension tish asta-sekin (oyiga 1 mm) tortiladi. Tishni tish yoyida tushirgandan so'ng va okklyuzion kontaktlar to'g'rilangandan so'ng, bemor olinadigan yoki olinmaydigan retension apparatlardan foydalanadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tishlarni o'z vaqtida chiqmasligi tashqi va ko'p hollarda mahalliy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Tishlarni retensiyaga uchrashining eng ko'p uchraydigan sabablari ortiqcha tishlar, shuningdek, tishlarning o'z o'qiga nisbatan noto'g'ri joylashishi va tish yoyida bo'sh joy yetishmasligi hisoblanadi. Retension tishlari bo'lgan bemorlarni davolash o'z vaqtida chiqmagan tishlarning o'lchami, shakli, joylashuvi bo'yicha individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, bemorning yoshi, ildizlarning shakllanish darajasi, tish yoyida bo'sh joy mavjudligi yoki uning yetishmasligi, ortiqcha tishlarning mavjudligi yoki boshqa sabablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Nigmatov R.N., Shomuxamedova F.A. Ortodontiya. 1-jild Tish-jag' anomaliyalari va deformatsiyalari, tekshirish usullari. - T. 2020 yil.
- 2) Nigmatov R.N. Shomuxamedova F.A., Nigmatova I.M. Ortodontiya Darslik. 2-jild Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining "Stomatologiya" fakulteti Talabalari. T. 2021.
- 3) Sayt: (<https://www.krasotaimedicina.ru/treatment/> otorhino laryngology ([https://www.krasotaimedicina.ru/diseases/zabolevanija\\_lor/adenoids](https://www.krasotaimedicina.ru/diseases/zabolevanija_lor/adenoids))
- 4) Отчет о опубликованные научные труды сотрудников кафедры ортодонтии и зубного протезирования за 2022-23 учебный год. // Нигматов Р.Н., Муртазаев С.С., Нигматова И.М., Арипова Г.Э., Шамухамедова Ф.А., и др./ Сборник материалов научно-практической конференции с международным участием «Актуальные вопросы ортопедической стоматологии и ортодонтии» г. Ташкент – 2023. С. 167-187.

## **FEATURES OF FIXATION OF ZIRCONIUM DIOXIDE PROSTHESES**

*Saminova M.Z student 102A gr. Stoma TGSI*

*Scientific supervisor: Ochilova M.U., assistant at the Department of  
propaedeutics Orthopedic Dentistry.  
Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan.*

#### **Relevance**

Prosthetic dentistry of the 21st century is characterized by high requirements for aesthetic aspects of dental prosthetics. In this regard, dentures made of ceramic materials based on zirconium dioxide are becoming increasingly widespread. This a special type of ceramic that does not contain a glass phase, therefore the traditional acid method etching for reliable adhesive fixation of ceramic crowns in the case of zirconium dioxide

not applicable.

#### **Target**

This study was to study the features of fixation of zirconium dioxide prostheses according to the available literature.

<b>YUQORI JAG' SINUSIDA BMP-2 YUKLANGAN KOLLAGENLANGAN IKKI FAZALI KALTSIY FOSFAT TOMONIDAN SUYAK REGENERATSIYASINI TEZLASHTIRISH.</b> Rafiqov K.M., Maxmudov M.B., Irxanov M.M.	124
<b>MOLAR DISTALIZATION BY DIFFERENT INTRAORAL DEVICE IN ORTHODONTICS</b> Muratova G.A., Dushaboyev U.A.	128
<b>KOLLAGENLANGAN SINTETIK SUYAK BLOKI YOKI SINTETIK SUYAK ZARRACHALAR YORDAMIDA MAKSELLAR SINUSNING O'LCHAMLARI O'ZGARISHI</b> Rafikov K.M., Nosirov A	130
<b>TISHLAR ANATOMIYASI VA GISTOLOGIYASI</b> Salimov O.R., Shofayzieva L.N., Abduvoxitova M.	133
<b>ANALOG VA RAQAMLI USULLAR BILAN ISHLAB CHIQARILADIGAN PLASTIK TISH PROTEZLARNING YASALISHI</b> Turobjonov M., Muxammadjonova Z.M.	135
<b>AQL TISHLARNING KECHIKISH MEXANIZMLARINI ORGANISH.</b> Yusupalieva K.B., Abdurashidova M, Islomov A	137
<b>O'Z VAQTIDA CHIQMAGAN DOIMIY TISHLARNI TASHXISLASH VA KOMPLEKS DAVOLASH.</b> Shaamuhamedova F.A., Murtazaev S.S., Ne'matova M.A, Baxtiyorova M.I, Kamolov K.N.	139
<b>FEATURES OF FIXATION OF ZIRCONIUM DIOXIDE PROSTHESES</b> Saminova M.Z., Ochilova M.U.	141
<b>АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ СОСТОЯНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПРОТЕЗНОГО ЛОЖА У ПАЦИЕНТОВ СО СЪЁМНЫМИ ПРОТЕЗАМИ ИЗ ТЕРМОПЛАСТОВ</b> Абдуллаев У., Омонова Н.А.	142
<b>ОРАЛЬНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ХБП И ЕЕ ТЕРАПИЕЙ</b> Акбаров А.Н., Шоахмедова К.Н.	144
<b>ОРТОДОНТИК АППАРАТЛАР ҚЎЛЛАНИЛГАНДА ДАВОЛАШ СИФАТИГА ОИЛАВИЙ ЁНДАШУВНИНГ ТАСИРИ.</b> Акбаров К.С., Кодиров Ж.М., Поёнова Г.М.	147
<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕРАТИВНО-СОСТАЯЗАТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ В СТОМАТОЛОГИИ</b> Акбара М, Алиева Н.М.	148
<b>СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР: РЕЗЕКЦИЯ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ С ОДНОМОМЕНТНОЙ ПЛАСТИКОЙ АУТОТРАНСПЛАНТАТОМ</b> Алиева Н.М., Меликузиев Т.Ш., Махкамов Р.	150